

# Kuchli shamol vaqtida xavfsizlik choralari



- yashash joylarida eshik-derazalar, chordoq va havo aylanish tizimlarini mahkam berkitish;
- elektr va gaz vositalarini o'chirish;
- ko'chalarda daraxt va elektr ustunlari tagida turmaslik;
- ko'p qavatli binolar balkonlarida, deraza tokchalari hamda tashqaridagi buyumlarni imkon qadar xavfsiz joylarga olib qo'yish yoki mustahkamligini tekshirish;
- shamol kuchayganda, mustahkam qurilgan binolar, yer osti o'tish yo'llari va boshqa yashirinish mumkin bo'lgan joylarda muhofazalanish;
- ochiq maydonda yurgan hollarda pastliklar, chuqurliklar va barcha xavfsiz yerlarga yotgan holda himoyalalanish;
- buzilgan binolarga kirish, xavfli ustunlar, reklama ustunlari va daraxtlar ortiga yashirinish taqiqlanadi;
- kuchli shamoldan so'ng elektr va gaz jihozlaridan ular tekshirilgandan keyin foydalanish talab etiladi.

Shuningdek, avtomobillarni daraxtlar ostida qoldirmaslik tavsiya etiladi.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi